


YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ

2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR CHIROG'



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

 TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR. 1, 2-UY.
 +998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00
 WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ

 IYUN №53

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
4-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-4**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-4**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 53-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДА
ТУТГАН ЎРНИ**

| | |
|--|----|
| 1. Saidov Sanjar Shavkatovich, Ramazonova Marjona Navro'z qizi XORIJDAGI VATANDOSHLARNI O'Z YURTIGA JALB QILISHNING ASOSIY XUSUSIYARLARI..... | 7 |
| 2. Gulchehra Bektemirova Xoshim qizi TURLI GURUHLAR BILAN IJTIMOIIY ISH OLIB BORISH TEXNOLOGIYALARI TUSHUNCHASINING MAZMUN MOHIYATI | 13 |



СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ

XORIJDAGI VATANDOSHLARNI O‘Z YURTIGA JALB QILISHNING ASOSIY XUSUSIYARLARI

Saidov Sanjar Shavkatovich
siyosiy fanlar doktori, O‘zDJTU professori.
Ramazonova Marjona Navro‘z qizi,
JIDU magistranti, huquqshunos
Telefon: +99890 122 29 12
O‘zbekiston, Toshkent sh.,
marjonamazonova@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi migratsiya siyosati jarayonlari, shuningdek, chet eldagi vatandoshlarni o‘z yurtiga ixtiyoriy ravishda ko‘chirishga ko‘maklashish mexanizmlari, ushbu siyosatning yo‘nalishlaridan biri sifatida muhokama qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan tasdiqlangan dasturni amalga oshirishning muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi. Bundan tashqari vatandoshlarni o‘z yurtiga jalb qilish bo‘yicha xorijiy tajriba o‘rganildi, xususan, ko‘plab fuqarolari xorijda bo‘lgan Tojikiston hukumati dasturi o‘rganib tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: migratsiya jarayoni, tojik diasporalari, propiska, VTD (Vatandosh), uchinchi renessans, davlat imidji, qo‘shfuqarolik, ikkinchi fuqarolik, mehnat muhojirlari.

Davlatda iqtisodiy, ijtimoiy, demografik jarayonlarni rivojlantirishda aholi migratsiyasi asosiy ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati xorijdagi vatandoshlarni mamlakatni siyosiy modernizatsiya qilish jarayoniga faol jalb etishga harakat qilmoqda. Ular sarmoya, bilim, ko‘nikma hamda xorijiy tajriba almashinuvi kabi sohalarda potentsial hissa qo‘shadigan muhim manfaatdor tomonlar sifatida qaraladi. Vaholanki, uchinchi renessansga qadam qo‘ygan O‘zbekiston uchun malakali, xorijiy tajribaga ega bo‘lgan vatandoshlarni qaytarish mavzusi katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston hukumatining hozirgi davrdagi asosiy maqsadi – davlat institutlari orqali O‘zbekiston fuqarolarining qonuniy huquq va manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan migratsiya oqimlarini boshqaruvchi va tartibga soluvchi qulay shart-sharoitlar yaratish.¹

Statistik ma‘lumotlarga yuzlanadigan bo‘lsak, 1991–2020 yillarda O‘zbekistonga 5,17 million shaxs kelgan, 6,83 million nafar shaxs ketgan va salbiy migratsiya 1,66 million kishini tashkil etgan.²

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi boshqarma boshlig‘i Azim Ahmatovning matbuotga bergan ma‘lumotlariga qaraganda, O‘zbekistondan xorijiy davlatlarga ishlash uchun chiqib ketgan migrantlar soni 2022 yil birinchi chorak yakuni bo‘yicha 2 mln 346 ming nafarni tashkil etgan. Yil oxiriga kelib 400 ming nafar fuqaro O‘zbekistonga qaytib kelganligi qayd etildi.

Ta‘kidlab o‘tish joizki, 2022 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 14–30 yoshdagi jami doimiy aholi soni 9 million 685 ming 564 nafarni tashkil etgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotiga qaraganda, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 8,8 ming nafar O‘zbekiston fuqarosi boshqa davlatlarga doimiy propiska uchun jo‘nab ketdi. O‘tgan yilga nisbatan xorijga ko‘chib ketganlar

1 Указ Президента Республики Узбекистан «Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах» № УП-4947 от 07.02.2017

2 НАРОДОНАСЕЛЕНИЕ Т. 24. № 4. 2021 . 166 стр. “Проблемы и возможности эффективного регулирования внешней трудовой миграции в Республике Узбекистан.” Исакулов Ш.Н DOI: 10.19181/population.2021.24.4.13



soni qariyb 2,5 barobar kamaydi.¹

Xorijdagi vatandoshlar bilan hamkorlik yurt kelajagi uchun qanchalik zarur ahamiyat kasb etadi. Zero, qabul qilingan qarorda aytilganidek, O‘zbekiston bilan ma’naviy, madaniy va huquqiy aloqalarni saqlashga hamda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ishtirok etishga intilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.²

O‘zbekiston hukumati xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash, jumladan, iqtisodiy hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratish, qarorlar qabul qilish jarayonlarida ularning ishtirokini rag‘batlantirish bo‘yicha bir necha tashabbuslarni amalga oshirdi.

“O‘zbekiston Respublikasining xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi” bo‘yicha chet elda ta’lim olayotgan O‘zbekiston yoshlarini kelgusida o‘qishni tamomlaganidan keyin O‘zbekiston Respublikasida ish bilan ta’minlash yuzasidan takliflar ishlab chiqish tahlil qilingan edi. Shu munosabati bilan xorijda yashayotgan va professional faoliyatini yuritayotganlar, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste’dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalarida hamda O‘zbekistonda o‘qitish va malakasini oshirish orqali kadrlar tayyorlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2018 yil 25 - sentabrdagi PF-5545-sonli farmoni qabul qilindi.³ Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil, 30-oktabrdagi “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohasida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5270-sonli qarori qabul qilingan edi. Ushbu qarorda turizm ta’limi tizimidagi 50 nafar yosh tadqiqotchilarni dunyoning eng ilg‘or OTMLaridagi magistratura va doktorantura dasturlarida ta’lim olish uchun "El-yurt umidi" jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 2022-2023-yillarda jo‘natilishi lozimligi belgilandi.⁴

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Tashqi mehnat migratsiyasi va qaytgan mehnat migrantlarning reintegratsiya dasturlari boshqarmasi nizomida yuridik shaxslarga xorijiy ishchi kuchini jalb qilishga ruxsatnomalarni va xorijiy fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomalarni belgilangan tartibda berish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida mehnat qilayotgan xorijiy fuqarolar hisobini yuritilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.⁵

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, mamlakatimiz aholisi yashash sharoiti hamda farovonligi darajasini izchil oshirish va bu borada kelgusidagi vazifalarni belgilash eng ustuvor maqsadimiz bo‘lib kelmoqda. Asosan, jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarini isloh qilish va modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashga qodir bo‘lgan samarali tashqi siyosat yuritish bugungi globallashuv jarayoni avj olgan zamon talabidir. O‘zbekistonning ochiq, faol va konstruktiv tashqi siyosati izchilligini ta’minlash borasida qabul qilingan “Millatlararo munosabatlar sohasida o‘zbekiston respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi”, O‘zbekistondagi siyosiy modernizatsiyaning yaqqol namoyoni bo‘lgan yangi tahrirdagi konstitutsiyaning qabul qilinishi xalqaro munosabatlarda davlatimiz imidjini rivojlantirishning asos omillaridan biri bo‘lmoqda. Zero, konsepsiyaning 1 - bandida ta’kidlanganidek, tarbiyani eng avvalo boshidan boshlashimiz ya’ni yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini ta’minlash, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikni bog‘cha yoshidan

1 Агентство статистики при президенте Республики Узбекистан. <https://stat.uz/ru/>

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2018 yildagi PQ-3982-son qarori “Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/-4022649>

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “el-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/-3920037>

4 “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohasida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.10.2021 yildagi PQ-5270-son, 5 - band <https://lex.uz/docs/-5701949>

5 O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi <https://mehnat.uz/oz#>



bola ongiga singdirishimiz va buni amalda ko'rsatishimiz, jamiyatda ko'p millatli katta oila his-tuyg'usini, respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada mustahkamlashimiz bu yo'lda tashlangan eng oldi qadamlardan biri bo'lishi nechog'lik haqiqat.

Davlat imidjini ko'tarish, modernizatsiya jarayonini jadallashtirish nafaqat siyosiy, iqtisodiy balki ijtimoiy, madaniy sohalarda islohotlarni birgalikda amalga oshirish orqali erishish mumkin. Vaholanki, bu jarayon ishchi kuchiga, malakali, xorij tajribasiga ega bo'lgan kadrlarga talabni oshiradi. Shu munosabati bilan yurtimizdagi modernizatsiya jarayoniga chet eldagi ilg'or vatandoshlarimizni jalb qilish mexazmlarini ishlab chiqish oldimizda turgan eng asosiy vazifa. Zero bundan, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga va uning xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli va do'stona munosabatlarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishni istagan vatandoshlar va ular tomonidan tuzilgan tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash, mahalliy mahsulotlar eksporti hajmini oshirishga yordam berish va uning geografiasini kengaytirish maqsadlari qo'yilgan.¹

Hozirgi kunda O'zbekistonning samarali qiyofasini shakllantirish uchun juda katta siyosat olib borilmoqda, bunga yaqqol misol qilib, O'zbekistonda turizmni jadal rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlarni misol keltirish mumkin: O'zbekiston Respublikasida Prezident farmoniga binoan respublikamizda 2019-2025-yillar oralig'ida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra: Viza rejimini liberallashtirish(erkinlashtirish), chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibini soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va profensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkoniyatini beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizni yanada isloh qilish, rivojlantirish borasida chuqur islohotlar olib borilmoqda.

2018 – yilning 25 - oktabrida “Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining PQ – 3982 – sonli qarori hamda unga ilova sifatida vatandoshlar bilan hamkorlik qilishning davlat siyosati Konsepsiyasi ham qabul qilindi. Konsepsiyaga ko'ra vatandoshlar qatoriga a) chet elda vaqtincha yashayotgan O'zbekiston fuqarolari; b) xorijga chiqib, chet el fuqaroligini olgan, O'zbekistonga ma'naviy va madaniy nutqai nazardan mansublikni his qilgan shaxslar; c) etnik, til va madaniy-tarixiy nuqtai nazardan o'zini o'zbeklar yoki qoraqalpoqlar sifatida identifikatsiya qilgan hamda O'zbekiston bilan aloqada bo'lish xohishida bo'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi. Konsepsiyada iqtisodiy hamkorlikka alohida urg'u beriladi. Xususan, moliyaviy-iqtisodiy va intellektual-texnologik salohiyatga ega ishbilarmon doira vakillarini, sarmoyadorlarni, xalqaro moliya institutlari xodimlari va mutaxassis vatandoshlarni jalb qilish, ularga O'zbekistonda faoliyat yuritishlariga sharoit yaratib berish belgilangan. Bundan tashqari, kontsepsiyada O'zbekiston rivojlanishiga hissa qo'shmoqchi bo'lgan vatandoshlarga har tomonlama ko'mak ko'rsatilishi ham nazarda tutilgan, jumladan: a) kirish vizalarini soddalashtirilgan holda rasmiylashtirish; b) davlat tasarrufida bo'sh turgan obektlarni tadbirkorlik, innovatsion, ilmiy-tadqiqot va boshqa dasturlar uchun ajratib berish; c) yuqori malakali vatandoshlarni davlat organlariga rahbarlik lavozimlariga maslahatchi sifatida jalb qilish; d) soddalashtirilgan tartibda O'zbekiston fuqaroligini berish kabi choralar nazarda tutilgan (“Vatandosh pasporti”).

Jumladan, vizasiz tizim jarayoni jadallashtirildi. 2021-yil 15-mart holatiga ko'ra, fuqarolari uchun O'zbekiston Respublikasida vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 90 tani tashkil qildi. Ikki tomonlama xalqaro shartnomalar va tenglik asosida Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) ishtirokchilari uchun, xususan 10 ta davlat, Ozarbojjon Respublikasi, Gruziya, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina (cheklanmagan), Qirg'iziston Respublikasi (60 kungacha) va Tojikiston Respublikasi (30 kungacha) bilan ikki tomonlama vizasiz rejim o'rnatilgan.

Holbuki, bugungi kunda O'zbekistonda xorijda istiqomat qilayotgan yurtdoshlar qo'llab-quvvatlanayotgan, ularning Vatanga oson qaytish yoki kelib-ketishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2018 yildagi PQ-3982-son qarori “Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” <https://lex.uz/docs/-4022649> 3 – bob, 4 – bob.



Belgilangan vazifalarning ijrosi sifatida hukumat qarori (326-son, 17.04.2019 y.) bilan “Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a'zolarini O'zbekiston Respublikasiga taklif qilishni rasmiylashtirish, ko'p martalik kirish vizalarini berish hamda ularni ichki ishlar organlari tomonidan vaqtincha propiska qilish tartibi to'g'risida”gi Nizom tasdiqlandi. Uning qator bandlarida vatandoshlar uchun tartiblarni soddalashtirish yo'li bilan qulayliklar yaratish nazarda tutildi.

Jumladan, VTD (Vatandosh) turdagi kirish vizasi joriy etildi. Endilikda, O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat qiluvchi va uning fuqarolari bo'lgan qarindoshlari tomonidan berilgan taklifnoma asosida keladigan, amal qilishi mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududiga cheklanmagan marta tashrif buyuradigan vatandoshlar va ularning oila a'zolari uchun 2 yil muddatga viza beriladi.

Bundan tashqari chet eldagi vatandoshlarni o'z yurtiga qaytarish jarayonida erkin harakatlanish, faoliyat yuritish ijobiy ahamiyatga ega. Butun dunyoda malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib borayotganligi esa ularning harakat maydoni chegaralarini yanada kengaytirmoqda. Bunday hollarda, tabiiyki, odamlar o'zi uchun eng optimal yo'lni – ya'ni, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yaxshiroq variantni tanlaydilar. “Qo'shfuqarolik” bu - bo'lib turgan mamlakat hamda o'z vatani fuqaroligiga ega bo'lish tushuniladi. Bundan tashqari qo'shfuqarolikka ega bo'lgan fuqaro bir vaqtning o'zida ikki mamlakat qonunchiligiga asosan huquqlaridan foydalana olmaydi, balki fuqaro o'zi bo'lin turgan davlat qonunchiligiga asosan huquqlaridan foydalanadi. “Qo'shfuqarolik” tizimi birinchi bo'lib Yevropa mamlakatlari Buyuk Britaniya (1948), Fransiya (1973), keyinchalik Kanada (1976), AQSH (1990) da joriy etilgan. Bunda ikki davlat o'rtasida fuqarolarning bir vaqtning o'zida ikkinchi davlat fuqarosi bo'lishi mumkinligi haqidagi rasmiy kelishuvga ega bo'lganda amalga oshiriladi. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston Respublikasi, Ispaniya va Argentina, Argentina va Italiya kabi davlatlar o'rtasida ana shunday kelishuvlar imzolangan. Ushbu davlatlarni geografik, tarixiy yoki til omili kabi jihatlar birlashtirib turadi. “Qo'shfuqarolik” ni “Ikkinchi fuqarolik” tizimi bilan qiyosiy tahlil qilish lozim. Xususan ikkinchi fuqarolik tizimi joriy qilingan Buyuk Britaniya qonunchiligida fuqaro bir vaqtning o'zida boshqa davlat fuqarosi bo'lishi ham mumkin. Ikki fuqarolik uchun ariza berish shart emas. Fuqaro chet el fuqaroligini olish uchun ariza topshirishi va Britaniya fuqaroligingizni saqlab qolishi mumkin. Ikki fuqarolikning afzalliklari shundaki, fuqaro Shengen mamlakatlari, Buyuk Britaniya, AQSH ga vizasiz sayohat qilishi mumkin. Yuqorida tahlil qilingan “Qo'shfuqarolik” va “Ikkinchi fuqarolik” tizimlari fuqaroning shaxsiy foydasini ustun qo'yishi, unga ko'plab erkinliklar, imkoniyatlar yaratib berishga asoslanganligi uchun fuqarolarni yurtga jalb qilishning samarali vositasi bo'lishi mumkin. Xalqaro huquq normalariga ko'ra, davlatlar ko'p fuqarolik tizimini taqiqlash siyosatini olib borishlari yoki aksincha, bunga ruhsat berishlari mumkin.

Xorijdagi vatandoshlarni o'z yurti taraqqiyoti uchun hamkorlikda ish olib borishi, undagi amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayoniga qiziqish bildirishi uchun ko'plab konsepsiyalar qabul qilinganligini xorij tajribasida ham kuzatish mumkin. Zero, “Millatlararo munosabatlar sohasida o'zbekiston respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 1 – bandida keltirilgandek, O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarni, ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish lozimdir. Jumladan, oxigi ma'lumotlarga qaraganda, Tojikiston Respublikasining bir yarim milliondan ortiq aholisi chet elda. Tojikiston hukumatining “Tojikiston Respublikasi hukumati to'g'risida” gi konstitutsiyaviy qonunining 16 – moddasiga binoan “Tojikiston fuqarosi mamlakat chegarasidan tashqarida ham davlat himoyasidadir. Birorta ham respublika fuqarosi chet davlatga berib yuborilishi mumkin emas. Jinoyatchini ekstraditsiya qilish xorijiy davlatga ikki tomonlama shartnoma asosida hal qilinadi.”¹ Tojikiston hukumatining “Tojikiston Respublikasi hukumati to'g'risida” gi konstitutsiyaviy qonunining 16 – moddasi hamda «Davlat prognozlar, konsepsiyalari, strategiyasi va Tojikiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti dasturlari» to'g'risidagi qonunning 6 – moddasiga asosan Tojikiston Respublikasining 2010 – yilning 29 – mayida “Xorijdagi vatandoshlarni Vatan taraqqiyotining hamkorlari sifatida yurtga jalb etish konsepsiyasi”ni tasdiqlash haqidagi 277 – sonli qarori qabul qilingan. Qarorning 2 – bandiga asosan konsepsiyani amalga oshirish yuzasidan chora – tadbirlar rejasi taqdim etilishi

1 https://www.constituteproject.org/constitution/Tajikistan_2003.pdf?lang=en



belgilangan. Tojikiston Respublikasi mehnat muhojirlarini eksport qiluvchi asosiy davlatlardan biri hisoblanadi. Hozir tojikistonlik mehnat muhojirlari dunyoning ko‘plab davlatlarida mehnat qilmoqda. Tojik diasporalari bo‘lib turgan mamlakatlarida o‘zlarining tashkilotlari, jamiyatlari va madaniyat markazlari tashkil etishgan. Qabul qilingan qarorga asosan, mehnat muhojirlarini samarali va maqsadli boshqarish, tashqi mehnat migratsiyasini davlatlararo tartibga solish tizimini shakllantirish, shuningdek, mehnat migrantlari va diasporalarining insoniy va moddiy resurslarini jalb qilish, ular bilan hamkorlik qilish, nafaqat mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ham hal qilish, fuqarolarning turmush darajasini ko‘tarish, qashshoqlik darajasini pasaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, inson taraqqiyoti indeksini yaxshilash, mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishishga zamin yaratadi, balki Tojikiston Respublikasining barqaror rivojlanishiga yordam beradi. Keyingi yillarda respublika fuqarolarining mehnat migratsiyasi jarayonini tartibga solish maqsadida ko‘plab tarkibiy va tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Mamlakatda sezilarli huquqiy asos yaratilgan. Bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, milliy dasturlar va xalqaro shartnomalar qabul qilindi. Shuningdek, Tojikiston Respublikasining migratsiya davlat siyosati Konsepsiyasi (8 oktyabr 1998 yil) va Tojikiston fuqarolarining mehnat migratsiyasi Konsepsiyasi (2001 yil 9 iyun) qabul qilindi, bu esa davlatning ushbu sohadagi faoliyati va bu yo‘nalishdagi mavjud muammolarni hal qilish imkonini beradi. Xorijdagi vatandoshlarni yurtga qaytarish hamda ular bilan mamlakat taraqqiyoti uchun hamkorlikda ish olib borish naqadar zarur ekanligi va bu sohada mavjud tuzilmalarni qayta isloh qilishga ehtiyoj borligi qarorda keltirib o‘tilgan. Chet eldagi vatandoshlar deganda: tojik diasporalari - xorijiy davlatlarda yashovchi, a‘zolari chet el fuqaroligini olgan va ushbu davlatlarning barcha konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlariga ega bo‘lgan tojikistonliklar jamiyati, mehnat muhojirlari – huquqlari bo‘lib turgan mamlakat qonun – qoidalariga asosan belgilanadigan, vaqtinchalik chet elda ishlaydigan Tojikiston Respublikasi fuqarolari, chet eldagi vatandoshlar – chet elda yashab ishlayotgan, lekin diasporalarga kirmaydigan Tojikiston Respublikasi fuqarolari, xorijdagi tojiklar - bu boshqa davlatlarning tarixan tub aholisi bo‘lgan tojik millatidagi fuqarolar tushuniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi oshayotgan bir paytda, ular bilan samarali hamkorlikni olib borish va islohotlarni sifat jihatdan yaxshilashda ularning salohiyatini jalb qilish borasida quyidagi qator muammolar saqlanib qolmoqda:

davlat organlari va tashkilotlarning vatandoshlar bilan aloqalarni o‘rnatishning samaradorligi past darajada va qisman ekanligi;

iqtisodiy, ijtimoiy, investitsiyaviy, ilmiy-ma‘rifiy, madaniy va boshqa ustuvor loyihalar hamda dasturlarni amalga oshirishda vatandoshlarning salohiyatidan oqilona foydalanmaslik;

vatandoshlarning o‘zbek tili, madaniyati va an‘analarini ommalashtirish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash borasida kompleks va uzoq muddatli strategiyaning mavjud emasligi;

xorijda ta‘lim olayotgan O‘zbekiston yoshlari bilan ishlashga yetarli darajada e‘tibor berilmayotganligi, mamlakatga qaytganlaridan keyin ularni ish bilan ta‘minlash tizimining yo‘lga qo‘yilmaganligi.

Xorijdagi vatandoshlarni o‘z yurtiga qaytarishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur ahamiyat kasb etadi: 1. xorijdagi vatandoshlar bilan aloqa o‘rnatish asosida davlat siyosatini shakllantirish; 2. mehnat muhojirlari, vatandoshlari va xorijdagi vatandoshlar bilan hamkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash; 3. mehnat muhojirlari, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini moslashtirish, chuqurlashtirish va rivojlantirishga ko‘maklashish; 4. Hukumat chet eldagi vatandoshlar, mehnat muhojirlari bilan hamkorlik qilish yo‘llarini belgilashi lozimligi. Chet elda bo‘lib turgan yurtdoshlarning ishonchini shakllantirishda mehnat muhojirlari va vatandoshlar uchun zaruriy huquqiy, ijtimoiy, madaniy-ma‘rifiy sharoitlarni yaratishga ko‘maklashish; vatandoshlar va xorijdagi fuqarolarning o‘z yurtlari ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy hayotida to‘liq ishtirok etishiga ko‘maklashish; mehnat muhojirlari, hamyurtlar va O‘zbekistondagi fuqarolarning xorijdagi vatandoshlar bilan hamkorligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini yaratish vazifalari eng asosiy maqsadlardan biri bo‘lmog‘i lozim.



Ababiyotlar ro'yhati

1. “New Uzbekistan – A New Model of Foreign Policy”. Monday, 01 February 2021. The Permanent Mission of the Republic of Uzbekistan to the United Nations.
2. Order of the Government of the Republic of Tajikistan of May 29, 2010 No. 277. “About approval of the Concept of involvement of foreign compatriots as partners of development of the fatherland”
3. “Millatlararo munosabatlar sohasida o‘zbekiston respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 15.11.2019 yildagi PF-5876-son.
4. <https://www.globalcitizensolutions.com/get-second-citizenship/>



TURLI GURUHLAR BILAN IJTIMOYIY ISH OLIB BORISH TEXNOLOGIYALARI TUSHUNCHASINING MAZMUN MOHIYATI

Gulchehra Bektemirova Xoshim qizi

O‘zMU magistranti

e-mail: gulchehra.bektemirova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif tomonidan bugungi kunda O‘zbekistonda aholining turli guruhlariga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va uning asosiy texnologiyalari bo‘yicha tavsiflar berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy guruh, ijtimoiy ish texnologiyalari, ijtimoiy xodim, guruh dinamikasi.

Bugungi zamonaviy taraqqiyot davrida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining turmush darajasini yaxshilash masalasi ko‘plab ijtimoiy fanlarning o‘rganish obyekti sifatida tadqiq qilinmoqda. Shu o‘rinda ijtimoiy ish aholining turli guruhlariga bilan ishlash masalasida uning texnologiyalari bilan boshqa ijtimoiy fanlardan ajralib turadi. Guruhlar bilan ijtimoiy ish texnologiyasi - bu kichik guruhlarda amalga oshiriladigan individual yordam usuli, individual ijtimoiy ish kabi, bu texnologiya xulq-atvor almashinuvi, individual rivojlanish va shaxslararo o‘zaro munosabatlarning turli yondashuvlarini o‘z ichiga oladi¹. Amalda, guruhlar bilan ijtimoiy ish juda keng tarqalgan: guruh maslahatidan tortib terapevtik va maslahat yondashuvlarigacha. Guruhlar bilan ijtimoiy ishda rivojlanish, rehabilitatsiya, tashkiliy va rehabilitatsiya yondashuvlari, shuningdek, ijtimoiy treninglar va ijtimoiy kompetentsiya treninglari qo‘llaniladi. An‘anaga ko‘ra, ushbu texnologiyalar mikrojamiyatda, ta‘lim muassasalarida va ijtimoiy idoralarda ishlash amaliyotida qo‘llaniladi. “Ijtimoiy guruh ishi” atamasini amerikalik ijtimoiy ishning mumtoz vakili G.Konopka taklif qilgan va boshqa tadqiqotchilar XX-asrning o‘rtalarida insonni ijtimoiy yo‘naltirilgan yordam usullari imkoniyatlari orqali qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish uchun samarali ekanligini tushuntirishgan. G.Konopkaning yondashuviga ko‘ra, guruhlar bilan ijtimoiy ish - muammoli vaziyatlarda mijozlarga ijtimoiy faoliyat uchun imkoniyatlarni kengaytirishga yordam beradigan ijtimoiy ish usuli va guruhning maqsadli tajribasi orqali yanada samaraliroq va individual, guruh yoki mikroijtimoiy muammolarni hal qilish usuli sifatida bilishgan. Keyingi yondashuvlar XX asrning 80-90-yillarida ingliz sotsiologlari R.Tuzlend tomonidan taklif qilingan va R. Rivas guruhlar bilan ijtimoiy ishni “mijozlarning kichik guruhlariga bilan ularning ijtimoiy-emotsional ehtiyojlari va vazifalarini qondirish uchun maqsadli faoliyat” deb ta‘riflagan. Ushbu faoliyat ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar tizimi doirasida uning alohida a‘zolariga ham, butun guruhga ham qaratilgan².

Guruhlar bilan ijtimoiy ish texnologiyasi, ularning fikricha, uni individual ijtimoiy ish texnologiyasidan ajratib turadigan umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- rejalashtirish va maqsadli kasbiy faoliyat;
- o‘z yaqinlari tomonidan o‘z maqsadlariga erishish uchun yuzma-yuz aralashuvlarni amalga oshirish uchun kichik guruhlardan foydalanish;
- ijtimoiy agentlik vakillari rahbarligida ishlash texnologiyasi;
- aralashuvning alohida guruh a‘zosiga va butun guruhga qaratilganligi;
- turli hil yordam texnologiyalarini ish jarayoniga kiritish³.

Guruhlar bilan ijtimoiy ish texnologiyasini ishlab chiqish jarayonida yordam ko‘rsatishning juda ko‘p modellari paydo bo‘ldi, bu ularning turli hil tasniflarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Biroq, M. Paynening so‘zlariga ko‘ra, yangi asrning boshiga kelib, guruh bilan ijtimoiy ishning faqat uchta asosiy modeli ishlab chiqilgan: klinik model, o‘zaro yordam modeli va ijtimoiy yo‘naltirilgan model.

Klinik modelda guruh og‘ir hayotiy vaziyatda bo‘lgan shaxslar to‘plami sifatida tushuniladi,

1 Pavленок П.Д., Руднева М.Я. Технология социальной работы с различными группами населения. Москва.: ИНФРА-М, 2010. – С. 102.

2 Платонова Н.М., Нестерова Г.Ф. Теория и методика социальной работы. Москва.: ИЦ «Академия», 2010. – С. 42.

3 Фирсов М.В., Студенова Е.Г. Технология социальной работы, Москва.: ЮРАЙТ, 2012. – С. 71.



guruh faoliyati xatti-harakatlarning og'ishlari bilan ishlashga qaratilgan. O'zaro yordam modeli guruhlararo yordam bilan bog'liq bo'lib, guruh a'zolari ijtimoiy ishchi bilan birga yordam dasturini ishlab chiqishda ishtirok etadilar. Ijtimoiy yo'naltirilgan model aholining turli guruhlarini faollashtirishga qaratilgan bo'lib, ular orasida yoshlar bilan ishlash, mikroijtimoiy muhitda ishlash va boshqalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, guruhlar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari tobora ko'proq fanlararo bog'liq bo'lib, bunga mijozlarning tobora murakkablashib borayotgan ehtiyojlari (amaliyot talabi) va guruh bilan nazariy modellarni ishlab chiqish yordam beradi, ular nafaqat asoslanadi balki, fanlararo yondashuvlar kontekstida, transversal ilmiy istiqbollarning mantig'ida ham namoyon bo'ladi.

Aholining turli guruhlarini ijtimoiy ish texnologiyasida mijoz sifatida ko'rib chiqiladi. Hamma uchun umumiy muammolarga ega bo'lgan mavzu sifatida odamlar bir guruhga birlashgan, ammo bu muammolarni hal qilish shaxsiy yondashuvni hisobga olgan holda individual yondashuv asosida amalga oshiriladi. Guruhning har bir a'zosidan so'rov o'tkaziladi. Ushbu o'ziga xos yondashuv ijtimoiy ish texnologiyasining nazariy asoslari va kasbiy o'zaro munosabatlarning axloqiy me'yorlarining xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Aholining turli guruhlarining xususiyatlarni tushunish uchun asosiy tushunchalar vaziyatning o'zgarishini baholash muhim hisoblanadi. Guruh munosabatlarni tushunish uchun bir nechta nazariyalarni keltirish mumkin. Bularga: ego psixologiyasi, kognitiv nazariyalar va ijtimoiy ta'lim nazariyasi, munosabatlar nazariyasi, shaxsning rol nazariyasi va aloqa nazariyasi.

Guruh ishlarida ego psixologiyasi tushunchalari shaxsning ichki o'zini o'zi tashkil etishini tushuntirishga imkon beradi, uning tashqi dunyo bilan munosabatlar anglash demakdir¹. Bu tushunchalar mijozni tushunishga imkon berib, ijtimoiy ishchi - mijozning alohida shaxs sifatidagi xatti-harakati va guruh a'zosi sifatida shaxsning voqelikka va jamiyatning boshqa a'zolariga individual moslashish jarayonini, mijozning tashqi bosimga qanday munosabatda bo'lishini, uning qanday shakllanishini tushunish hamda ichki bezovtalik sabablarini anglashga ko'maklashadi. Egoni o'rganishda rivojlanish masalalariga alohida e'tibor beriladi shaxsning moslashuvi, avtonomiya, erkinlik va uning ijtimoiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar. Ego shaxsning atrof-muhit bilan munosabatlarini tartibga soladi, o'ziga xos xususiyatga ega avtonom shaxs sifatida ishlaydi va mudofaa mexanizmlari tizimi mohiyatini tushuntiradi. Ushbu qoidalarga asoslanib ego psixologiyasi, guruh ishi jarayonida ijtimoiy ishchi shaxslarning psixologik himoya ko'nikmalarini yangilashga intiladi, guruh yordamida ularni rivojlantirishga yordam beradi va amaliyot jarayonida ularni topishga yordam beradi. Guruh ishi atrof-muhitning turli hil tajovuzkorlik shakllariga qarab ishlashning turli hil ko'rinishlari bilan namoyon bo'lishi mumkin. Kognitiv nazariyalar va ijtimoiy ta'lim nazariyalar ijtimoiy xodimlarga guruhlararo o'zaro ta'sirda shaxslarning xatti-harakatlarining motivlarini sharhlash va tahlil qilish, qiymat yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Dunyo haqidagi bilimlarni shakllantirishga katta e'tibor beriladi, to'g'ridan-to'g'ri aloqa bo'lmagan holatlar ham hisobga olinadi. Guruhning o'zaro ta'siri tajribasi qiymat yo'nalishlari, ijobiy umidlar, kompetentsiya va ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'nikmalarini shakllantiradi. Munosabatlar nazariyasi shaxslararo munosabatlarni odamlarning bir-biriga o'zaro ta'siri omili sifatida tushunishga imkon beradi. Guruh ishiga bo'lgan munosabatlar aniq ko'rinadi va mijozga o'z mas'uliyatini tushunishga yordam beradigan kuchli munosabatlar guruhlararo o'zaro munosabatlarda, o'zgaruvchan sharoitlarda guruhning boshqa a'zolari bilan birga yashashni o'rganish, psixologik shakllanishi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish va guruhlararo muloqot jarayonida qo'llaniladi. Shaxsning rol nazariyasiga muvofiq, shaxslararo o'zaro ta'sir jarayonida shaxs ma'lum rollarga mos keladigan xatti-harakatlarning muayyan modellarini o'rganadi. Ushbu yondashuv ijtimoiy ishchiga guruhdagi ish jarayonida shakllanadigan rollarni kutish, rol ziddiyatlari, rol munosabatlari haqida bilim beradi². Ijtimoiy ishchi uchun mijozning shaxsiy o'sishi uchun sharoit yaratish, uni yaxshilash muhim ahamiyatga ega jamiyatdagi ijtimoiy faoliyat va bu holda rol ta'lim modeli sifatida xizmat qilishi mumkin. Muloqot nazariyasi subyektlar o'rtasida dinamik axborot almashinuvi haqidagi g'oyalarga asoslanadi³. Aloqa guruh jarayonida ma'lumot

1 Энциклопедия социальных практик / под ред. проф. Е.И. Холостовой, Г.И. Климантовой. Москва.: ИТЦ «Дашков и Ко», 2011. – С. 96.

2 Чернецкая А.Л. Технология социальной работы. Ростов н/Д.: Феникс, 2006. – С. 12.

3 Технология социальной работы / под ред. проф. Е.И. Холостовой, Л.И. Кононовой. М.: ЮРАЙТ, 2011. – С. 54.



almashish rolini o'ynaydi, uning namoyon bo'lishida rasmiylashtiriladi va ijobiy natijaga erishishga qaratilgan ma'lum bir vosita hisoblanadi. Shuning uchun bu jihatdan aloqa o'ziga xos vosita sifatida ishlaydi guruh ishidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi. Muloqot nazariyasi ijtimoiy ishchiga guruh jarayonida kuzatish imkonini beradi. Ijtimoiy murakkablashtiruvchi o'ziga xos to'siqlar dinamikasi subyektning ishlashi, ularni yengish uchun dasturlarni yaratish, guruh muloqotida individual his-tuyg'ularni va g'oyalarni ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Ushbu nazariyalarning asosiy tushunchalari, shuningdek, boshqa psixologik va ijtimoiy tushunchalar guruhdagi asosiy jarayonlarning dinamikasini tushunishga imkon beradi, ular ham guruh darajasida, uning alohida a'zolari darajasida, shuningdek, birgalikda rivojlanadi va guruhning yordami mijozlar muammolarini hal qilishga yordam beradigan mexanizmlar sifatida ko'riladi. Guruh jarayonlari dinamikasiga birinchi yondashuvlardan biri 1960-yillar o'rtasida taklif qilingan. Amerikalik psixolog B. Takman guruh rivojlanishining ikki omilli modelini asoslagan. B. Takmanning fikricha, bu guruh dinamikasi bir nechta bo'lgan jarayon hisoblanib, vaziyatning rivojlanishi va o'zgarishi jarayonida guruh a'zolarining faollik darajalarini tushuntirib berishga harakat qilgan. Amaliyot jarayonida turli xil faoliyat mazmunini o'zgartirish guruhning hayotiy faoliyati va butun guruhning dinamikasini aniqladi. Guruh dinamikasi haqidagi so'nggi g'oyalar butun guruh haqidagi g'oyalar bilan bog'liq edi. Jarayonda guruh faoliyati, mijozlar individual muammolar va ehtiyojlarni tushunadilar, rejalashtirilgan uchrashuvlarning maqsad va vazifalari mantig'ida yashirin kontseptsiyani ishlab chiqadilar va aniqlaydilar. O'z-o'ziga yordam berish tamoyillari va yondashuvlari. Guruh ishiga bunday yondashuv jarayonni tushunish imkonini berdi rol ziddiyatlari va o'zaro ta'sirlar kontekstida guruh dinamikasi yahshiroq tushunish mumkin. Bu yondashuv amerikalik psixologlar tomonidan taklif qilingan G. Mayer, R. Sarri, M. Galinskiy va boshqa tadqiqotchlar ishlarida kuzatish mumkin.

Guruhlar bilan ijtimoiy ish amaliyotida nazariy izlanish tavsif modellari ushbu sohadagi izlanuvchilar tomonidan amalga oshirildi. Guruh dinamikasiga asoslangan guruh bilan ijtimoiy ish texnologiyasini tavsiflash modelini taklif qilgan birinchilardan biri G. Konopka hisoblanadi. Tadqiqotchi guruh jarayonining besh bosqichini aniqladi, ularning rivojlanishning o'ziga xos mantig'i, boshlanishi va oxirini tushuntirib beradi.

Guruh dinamikasining barcha jarayonlari mijozlarning qiyin hayotiy vaziyatlarini hal qilish uchun o'zaro munosabatlarni rivojlantirish mantig'iga muvofiq qurilgan. Guruhlar tuzilish kategoriyasi rivojlanishdagi almashinuv jarayonlarini tavsiflaydi. O'zaro almashish jarayonlari guruh hayotida turli hil namoyon bo'ladi. Biroq, ular ma'lum bir ijtimoiy tuzilishda, uning a'zolari o'rtasida amalga oshiriladi guruh jarayonlarining dinamikasiga ta'sir qiluvchi munosabatlar, manfaatlar va hamdardlik ittifoqlari va boshqalar. Dinamika toifasi guruhning paydo bo'lishidan boshlab harakatini tavsiflaydi uning mavjudligining oxiri, ya'ni dastlabki maqsadlarni belgilash jarayonlaridan uni yopish uchun qaror qabul qilish jarayonlarini guruhlashgacha bo'lgan voqelikni qamrab oladi. Maqsadni belgilash guruhning rivojlanish dinamikasiga ta'sir qiladi, chunki u guruhning ishlash xususiyatlarini aniqlaydi, yangilaydi motivlar va ehtiyojlar, shu bilan o'zaro ta'sir jarayonlarini faollashtiradi. Dinamik jarayonlar qaror qabul qilish bosqichida, muammoli vaziyatdagi o'zgarishlar guruh a'zolari o'rtasidagi muhokamalarda baholanganda tugaydi.

Shunday qilib bugungi kunda, ijtimoiy ish sohasida turli hil ijtimoiy texnologiyalar ishlab chiqilgan. Ularning qo'llanilishi aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish jarayonlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 4-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000